



Xorazm qovunlari geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazildi

3-betda o'qing



Ta'til berilgan, ammo...

5-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
6-AVGUST
SESHANBA

№ 31
(1443)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot telegram kanaliga obuna bo'ling!



Huquqiy axborot telegram kanalida kuzating!

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

REKLAMA SABAB

ALDOV QURBONI BO'LMANG!



Bugun dunyo nimadir sotilayotgan, turli-tuman tovarlar va xizmatlar taklif qilinaotgan "global bozor"ga aylanib bormoqda. Ishlab chiqaruvchilarning asosiy vazifasi va bosh og'rig'i esa, qanday qilib bo'lmasin, mijozlarning e'tiborini jalb qilish, mahsulotlarining noqob ashyolar ekaniga ishontirib, molini sotishdir. Ana shu funksiyani reklama o'z zimmasiga oladi.

8-betda o'qing



5-betda o'qing

Hisobchining gaplari asossiz!



6-betda o'qing

Qalbaki sertifikatli ustozlar



7-betda o'qing

Yuvenal yustitsiya

Yuvenal yustitsiya, bir tomondan, voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo'lgan huquqini yuqori darajada ta'minlash imkoniga, ikkinchi tomondan esa, jamoatchilik kuchiga asoslanadi. Shu boisdan ham, mutaxassislar, yuvenal yustitsiyani sud va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi tuzilma, deb e'tirof etadi.

TOVAR BELGISI — QONUN HIMOYASIDA



"Dream Park" (eski "G'afur G'ulom" nomli) ko'ngilochar parkda intellektual mulk huquqi himoya qilindi.

Adliya vazirligiga "Stargate Systems" MCHJ tomonidan qilingan murojaatda "Carnaval" tovar belgisiga o'xshash belgidan "H.P.P." MCHJ huquq egasining roziligisiz foydalanayotgani holati yuzasidan tegishli chora ko'rish so'ralgan.

Holat bo'yicha "H.P.P." MCHJning "Dream Park" parkida joylashgan kongilochar obyekti belgilangan tartibda tekshirilganda, "Carnaval" tovar belgisiga o'xshash bo'lgan belgidan ko'ngilochar obyektning peshlavhasida foydalanilganligi aniqlandi.

"Carnaval" tovar belgisiga o'xshash belgi vazirlikning taqdimnomasiga asosan peshlavhalardan olib tashlandi.

2 JARAYON

M | S | K
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASISAYLOV
2024
27-OKTABR
MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM“MENING TANLOVIM —
OBOD VATANIM”

Mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlari sayloviga hozirlik ko'rilmoqda. Bu yilgi saylov 2019-yilda saylangan amaldagi deputatlarning konstitutsiyaviy vakolati tugaydigan joriy yilning oktabr oyi 27-sanasi “Mening tanlovim — obod Vatanim!” shiori ostida bo'lib o'tadi. Fuqarolarning jamiyat va davlat boshqaruvida yanada keng ishtirokini ta'minlash maqsadida saylov qonunchiligini izchil takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Konstitutsiyamizda ham saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator yangi normalar o'z aksini topdi.



Saylovlarni professional, ochiq va demokratik tarzda tashkil etish va o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy maqomi yanada mustahkamlandi. Xususan, saylov organlarining vertikal tizimini tashkil etish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga nafaqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yoki parlamentga saylovni, balki mahalliy kengashlarga saylovlarni ham tashkil etish va o'tkazish vazifasi yuklatildi.

Qolaversa, davlat boshqaruvida meritokratiya tamoyillarini tatbiq etish maqsadida ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasining raisi etib saylanishi mumkin emasligi belgilandi.

Qayd etish kerakki, bunday yangi konstitutsiyaviy normalar sohani tartibga soluvchi maxsus qonunlarda ham o'z aksini topishi lozim. Chunki, Asosiy qonunimizning 16-moddasiga muvofiq birorta qonun Konstitutsiya normalariga zid bo'lishi mumkin emas.

Bu borada, bir qator deputatlarning tashabbusi bilan saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan konstitutsiyaviy qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha xalq muhokamasiga qo'yildi va ijobiy fikr va mulohazalar natijasiga ko'ra, 2023-yilning 18-dekabrda “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Saylov kodeksi hamda 7 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Jumladan, Saylov kodeksiga saylovlarning aralash saylov, ya'ni majoritar va proporsional tizimini nazarda tutuvchi qoidalar kiritildi.

Aralash saylov tizimi o'zida ikkita — proporsional va majoritar saylov tizimini uyg'unlashtirgan. Unda vakillik organidagi deputatlik o'rinlarining bir qismi deputatlikka nomzodlarning partiya ro'yxatiga muvofiq siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda, ikkinchi qismi esa bevosita siyosiy partiya tomonidan bir mandatli saylov okruglaridan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarga berilgan ovozlar natijasiga ko'ra taqsimlanadi.

Mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining joriy yilning oktabr oyi da rejalashtirilgan saylovi ham aynan aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Bunda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati avvalgidek bevosita bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafar deputat siyosiy partiyalarning saylovda olgan ovozlari soniga proporsional tarzda, partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati bo'yicha saylanadi.

Majoritar saylov tizimi bo'yicha siyosiy partiya bir mandatli saylov okruglarining har biridan bittadan, jami 75 nafar deputatlikka nomzodni ko'rsatish huquqiga ega. Proporsional saylov tizimida yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlarning ro'yxatiga kamida 75, ko'pi bilan 100 nafar nomzod kiritilishi lozim.

Saylov kodeksi talablariga muvofiq, partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas. Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro'yxatiga kiritiladi. Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar ham partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin emas.

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek, partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini (avval bu miqdor o'ttiz foiz edi) tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga aralash saylov tizimi bo'yicha saylov o'tkazilishi munosabati bilan har bir saylovchiga saylov kuni majoritar saylov tizimi bo'yicha bitta, proporsional saylov tizimi bo'yicha ham bitta, jami ikkita saylov byulleteni beriladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, saylovning ochiq va shaffof o'tishi, xalq fikri va tanlovining inobatga olinishida avvalo aniq me'yorlarga tayangan mustahkam qonun hujjatlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalar va deputatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, siyosiy partiyalarning mavqei hamda saylov organlarining professional darajasi yanada oshishiga xizmat qiladi.

Elmurod TURSUNOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vaziri

HUQUQIY DAYJEST

JAVOBGARLIK
BELGILANGAN

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 1977-moddasiga binoan, tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga

to'sqinlik qilish yoki shu maqsadda tibbiyot xodimiga qonunga xilof ravishda har qanday shaklda ta'sir o'tkazish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdori — besh baravaridan yetti baravarigacha (1 million 700 ming so'mdan 2 million 380 ming so'mgacha), mansabdor shaxslarga esa yetti baravaridan o'n baravarigacha (2 million 380 ming so'mdan 3 million 400 ming so'mgacha) miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Shuni unutmash kerakki, qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

ISHSIZLIK
NAFAQASIGA SOLIQ
SOLINMAYDI

Mehnat kodeksining 51-moddasida ishsizlik nafaqasini to'lash tartibi qayd etilgan. Unga muvofiq, belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslar ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega.

Ishsizlik nafaqasi 12 oylik davr ichida ko'pi bilan 26 kalendar hafta davomida to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb tan olingan shaxsga u mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan birinchi kundan e'tiboran hisoblanadi va to'lanadi.

Ishsizlik nafaqasiga soliq solinmaydi.

OLIMPIYA G'OLIBLARI
VA ULARNING
USTOZLARI
RAG'BATLANTIRILADI

Ayni paytda Fransiya poytaxti Parij shahrida yozgi olimpiya o'yinlari bo'lib o'tmoqda. Shu ma'noda

aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi — samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari, olimpiya va paralimpiya sport turlari (yosh toifalari) bo'yicha jahon chempionatlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar, shuningdek, ularni tayyorlagan trenerlarni davlat budjeti mablag'lari hisobidan rag'batlantirish miqdorlari belgilangan.

Bunda oltin medal uchun 200 ming AQSH dollari, kumush medal uchun 100 ming AQSH dollari, bronza medal uchun 50 ming AQSH dollari miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladi. G'olib sportchilarning ustozlari (trenerlari) esa oltin medal uchun 50 ming AQSH dollari, kumush medal uchun 25 ming AQSH dollari, bronza medal uchun 12 ming 500 AQSH dollari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

AYOLLARNING
ULUSHI 40 FOIZ
BO'LADI

Joriy yilning 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko'rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo'ladi.



@huquqiyaxborot

Keyingi yillarda mamlakatimizda yuridik ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi Prezident farmoni bu borada yangi sahifa ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

YURIDIK AKADEMIK LITSEYLAR SONI UCHTAGA YETDI

Mazkur farmon bilan mamlakatimizda 2 ta yangi yuridik akademik litsey tashkil etildi. Bu qadam huquqiy ta'limni yanada rivojlantirish va malakali yuridik kadrlar tayyorlash maqsadida qo'yildi. Mazkur farmon asosida Namangan va Samarqand viloyatlari yuridik texnikumlari negizida Toshkent davlat yuridik universitetining akademik litseylari tashkil qilinib, yuridik akademik litseylar soni 3 taga yetdi.

Shuningdek, 2024/2025-o'quv yilidan boshlab yangi akademik litseylar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, har bir akademik litsey uchun qabul kvotalari 156 nafar etib belgilandi hamda kirish imtihonlari joriy yilning 27-iyul kuni bo'lib o'tdi.

Yangi akademik litseylar uchun o'qituvchilar tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi, albatta. Shu bois, o'quv jarayoniga malakali pedagog xodimlar jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Bunda yuqori malakali o'qituvchilar belgilangan tartibda tanlov asosida saralab olinadi. Shu bilan birga, yuridik akademik litseylar yangi avlod o'quv adabiyotlari va boshqa darsliklar bilan ta'minlanishi nazarda tutilgan bo'lib, bu borada yuqori sifatli ta'lim ja-

rayonini tashkil etish, o'quvchilarga zamonaviy sharoitlarda bilim olish va amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi.

Farmonda Toshkent davlat yuridik universiteti akademik litseylarining iqtidorli bitiruvchilarini "yurisprudensiya" yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalariga suhbat asosida test sinovlarisiz qabul qilish tartibini belgilash nazarda tutilgan. Ilgari TDYU huzuridagi akademik litsey bitiruvchilari uchun qonunchilik hujjatlariga ko'ra faqatgina mazkur universitetning bakalavriatiga test sinovlarisiz, yakka tartibda suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi joriy qilingan.

Bunda 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoniga muvofiq, "Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyning bitiruvchilarini Toshkent davlat yuridik universitetiga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga ko'ra, akademik litseyning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi reyting natijalari bo'yicha 71 va undan yuqori



foizni tashkil qilgan hamda chet tilini bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatga va shaxsiy yutuqlarga ega bitiruvchilari yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etib, to'lov-kontrakt asosida TDYUga o'qishga qabul qilinishi belgilangan.

TDYU huzuridagi akademik litsey bitiruvchilariga berilgan imtiyozlarga ko'ra, joriy yilda Toshkent davlat yuridik universitetiga 213 nafar bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etib, shundan 144 nafari to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi. Ma'lumot uchun, 2023-yilda 136 nafar bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etdi. Shundan 102 nafar bitiruvchi to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan bo'lsa, 2022-yilda 88 nafar bitiruvchi yakka tartibdagi suhbatda ishtirok etdi, shundan 49 nafar bitiruvchi to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilindi.

Ushbu istiqbolli rejalar orqali yuridik akademik litseylar O'zbekiston-

da yuqori malakali huquqshunoslar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, yuridik ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish va mamlakatning huquqiy tizimini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shishi kutilmoqda. Mazkur islohotlar nafaqat ta'lim sohasi uchun, balki butun jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqori malakali huquqshunoslar tayyorlash orqali biz qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va adolatli jamiyat qurish yo'lida katta qadam qo'yamiz. Bu o'zgarishlarning samarasi darhol ko'zga tashlanmasligi mumkin. Ammo, vaqt o'tishi bilan, biz yangi avlod huquqshunoslarining faoliyatida bu islohotlarning ijobiy natijalarini ko'ramiz, albatta.

Dilshod AVEZOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Uzluksiz ta'lim boshqarmasi
boshlig'i

Xorazm qovunlari geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazildi



Xorazmda geografik ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqaviy anjuman bo'lib o'tdi. Unda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Adliya vazirligi, "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi, viloyat hokimligi, qishloq xo'jaligi sohasining ilm-fan va texnologiyalar innovatsion ijodkorligiga munosib hissa qo'shgan mutaxassislar hamda fermerlar ishtirok etdi.

2022-yilning 3-martida qabul qilingan "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan geografik ko'rsatkichlar turidagi intellektual mulk obyektiga O'zbekiston hududida to'laqonli huquqiy muhofaza olish imkoniyati yaratildi.

Sakkizinchi geografik ko'rsatkich sifatida "Xorazm qovuni" ro'yxatdan o'tkazildi. Uning alohida xususiyatlari, ya'ni Xorazm vohasining Amudaryoga yaqin hududi tuprog'ining o'ziga xos kimyoviy-fizikaviy tarkibi, iqlimi BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) mutaxassislari, respublikamizning vakolatli tashkilot va laboratoriyalari mutaxassislari va ilmiy xodimlari tomonidan tasdiqlandi.

Tadbir ishtirokchilariga "Gurvak", "Zar Gulobi", "Qariqiz", "Beshak", "Tirish" navli Xorazm qovunlari, ularning tarixi, yetishtirilishi va navlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Aynan ushbu qovun navlarining ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar natijasida xalq xo'jaligi sohasining va umuman iqtisodiyotimizning rivojlanishi yangi turdagi intellektual mulk obyekti - geografik ko'rsatkichlarni huquqiy muhofaza qilishni taqozo etadi.

Adliya boshqarmasi tomonidan intellektual mulk obyektlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilishida, ularning huquqiy himoya qilinishida

fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Shu boisdan ham, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti tomonidan O'zbekistonda geografik ko'rsatkichlar bo'yicha viloyatda o'z ta'mi va ko'rinishiga ega bo'lgan "Xorazm qovunlari" va "Lazer", "Alanga", "Avangard" guruchlari hamda "Hazorasp olmasi", "Yangiariq noki" kabi mevalari nomlarining geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatga olinishida viloyat adliya boshqarmasining faolligi va tashabbuskorligi e'tirof etildi.

Aytish joizki, mazkur anjuman hozirgi kunda Amudaryo vohasining geografik ko'rsatkichlar sifatida rasmiylashtirish potentsialiga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining "Qoraqalpoq taxiyasi" (do'ppi), "Qoraqalpoq dudlangan baliqlari" va "Qoraqalpoq zog'oroni", Buxoro viloyatining "Qorako'l mo'ynasi", "Olot somsasi", "Buxoro sho'rdanaklari" hamda Xorazm viloyatining "Xiva gilamlari", "Tuxum barak", "Xorazm guruchlari" belgilarini kelgusida ro'yxatdan o'tkazish uchun poydevor yaratishi shubhasiz.

Bunday tadbirlar mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanishini, iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirishni, qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, hududning kengroq tanilishini ta'minlaydi. Shuningdek, mualliflar huquqlarini amalda ta'minlash, intellektual mulkni tijoratlashtirish masalalarini ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Nodir JUMANIYOZOV,
Xorazm viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

4 KO'ZGU



– Xodim bola parvarishi ta'tilida bo'lgan davrida ikkinchi farzandi uchun homiladorlik va tug'uruq ta'tiliga chiqsa, ham bola parvarishi nafaqasini, ham homiladorlik va tug'uruq ta'tili pulini olishga haqlimi?

NAFAQANING FAQAT BIR TURI TO'LANADI



– Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi qarori bilan tasdiqlangan “Budjet tashkilotlari hisoblanmaydigan yuridik va jismoniy shaxslarda ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizomning 8-bandiga ko'ra, agar ona bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi davrida ikkinchi farzandiga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til olish huquqiga ega bo'lsa, onaning tanlovi asosida nafaqaning faqat bir turi to'lanishi belgilangan.

Bola parvarishi bo'yicha nafaqa esa parvarish qilinayotgan bolalar sonidan va nafaqa oluvchi shaxsning mehnat stajidan qat'i nazar har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 60 foizi miqdorida to'lanishi belgilangan.

Budjet tashkilotlarida ishlaydigan ayollarga va onaning o'rnini bosuvchi shaxslarga bolalar nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Kam ta'minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash, ularga kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom asosida belgilanadi.

Kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilaga bolalar nafaqasi yoxud moddiy yordam yashash joyi bo'yicha oilaning muomalaga layoqatli a'zosining yozma arizasiga asosan tayinlanadi.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlash uchun ariza zarur hujjatlar bilan birga bevosita ariza beruvchining doimiy yoki vaqtincha yashash manzilidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga taqdim etiladi va ro'yxatga olinadi.

Luiza HASANOVA,
Oltinsoy tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish bo'limi
bosh yuriskonsulti

BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil Gavanada korrupsiya muammolariga bag'ishlab o'tkazilgan mintaqalararo seminarida qabul qilingan “Davlat xizmatchilari uchun xalqaro xulq-atvor kodeksi”da “korrupsiya bu mansabdor shaxslarning shaxsiy yoki guruh manfaatini ko'zlab mansabini suiiste'mol qilish, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan o'zlari egallab turgan xizmat vazifalaridan g'ayriqonuniy foydalanish ko'rinishlaridir”, deyiladi. Ushbu ta'rifda korrupsiyaning o'zagini mansab vakolatlaridan g'ayriqonuniy foydalanish tashkil etishi ko'rsatilgan.

2003-yil 31-oktabrda BMTning “Korrupsiyaga qarshi Konvensiya”si qabul qilingan. Mazkur Konvensiyaning 2-bobida davlatlarga nisbatan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ulardan biri ommaviy mansabdor shaxslar manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan xizmatlardan tashqari faoliyat, mashg'ulotlar, investitsiyalar, aktivlar hamda muhim tuhfa yoki naflar to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etishga majburligidir. Konvensiyaning 7-moddasida esa, har bir ishtirokchi davlat qonunchiligining asosiy prinsiplariga muvofiq shaffoflikni ta'minlaydigan va manfaatlar to'qnashuvining oldini oladigan tizimni yaratish va mustahkamlashga intilishi kerakligi bilan bog'liq qoidalar mavjud.

Oshkoralik prinsipi davlat xizmatchilarining o'z harakatlari uchun mas'uliyatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Korrupsiyaga qarshi Konvensiyaning 5-moddasi 1-bandida davlat boshqaruvining shaffofligi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi e'tirof etilgan. BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasini amalga oshirish bo'yicha texnik qo'llanmada esa, quyidagilar ta'kidlangan: “Umumiy prinsipga ko'ra, davlat organlarida shunday sharoit yaratish kerakki, unda xizmatlar ko'rsatish jarayoni oshkora va shaffofligi ta'minlangan bo'lishi toki shaxsiy va o'zgalar manfaatlariga asoslangan sovg'a va mehmondo'stlik munosabatlari rasmiy harakatlar va qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsata olmasligi lozim”.

Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi”da ham korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi borasida bir qancha yondashuvlar bor. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan alohida qonun hujjatlar mavjud. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi namunaviy qonunlar qabul qilingan. Mazkur qonunlarda aynan manfaatlar to'qnashuvi tushunchasiga e'tibor qaratilmagan bo'lsa-da, unga bog'liq munosabatlar, davlatlarning bu boradagi tegishli yondashuvlari keltirilgan.

MDHning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi namunaviy qonunida berilgan ta'rifga ko'ra, “korrupsiya (korrupsion huquqbuzarlik) – davlat funksiyalarini bajaruvchi mansabdor shaxslar, shuningdek, ularga

Xalqaro hujjatlarda manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi korrupsiya tushunchasining tarkibida berib o'tilgan. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi bilan 1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan “Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi”da korrupsiya tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, korrupsiya “... mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi”dir.

XALQARO HUJJATLARDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI



tenglashtirilgan shaxslarning o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalangan holda shaxsan yoki vositachi orqali g'ayriqonuniy tarzda moddiy boylik va imtiyozlarni qo'lga kiritishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir”.

Xalqaro hujjatlardan tashqari ayrim davlatlarning qonunchiligida ham davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuviga ta'riflar berilgan bo'lib, ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Rossiya Federatsiyasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, “Davlat yoki munitsipal manfaatlar to'qnashuvi ostida ushbu Federal qonundagi xizmat deganda, davlat yoki shahar xodimining shaxsiy qiziqishi (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, moddiy va nomoddiy xarakterdagi) uning rasmiy (xizmat) vazifalarini to'g'ri bajarishiga ta'sir qilishi yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va sudlar yoki shahar xodimining shaxsiy qiziqishi va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi. Fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar etkazishga qodir tashkilotlar hisoblanadi.”

Qozog'iston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunida manfaatlar to'qnashuviga shunday ta'rif beriladi: “Manfaatlar to'qnashuvi – mas'ul davlat lavozimini egallab turgan shaxslarning, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslarning, ularga tenglashtirilgan shaxslarning, mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaatlari va ularning mansab vakolatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, bu shaxslarning shaxsiy manfaatlari bajarilmasligiga olib kelishi mumkin va (yoki) o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganligidir.”

Turkmaniston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi – davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) uning xizmat vazifalarini to'g'ri bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan va fuqaroning shaxsiy manfaatlari

o'rtasida ziddiyat yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Qirg'iziston Respublikasining “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, “manfaatlar to'qnashuvi” qonunining 6-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning jamoat va huquqiy majburiyatlar bilan shaxsiy (xususiy) manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatdir. Bunda ularning shaxsiy (xususiy) manfaatlari o'z xizmat vazifalarini bajarishiga ta'sir qilishi yoki ta'sir qilishi mumkin, fuqarolarning, tashkilotlarning yoki davlatning huquq va manfaatlarini buzilishiga olib keladi yoki olib kelishi mumkin.

Tojikiston Respublikasining “Davlat xizmatlari to'g'risida”gi qonuniga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi – mansabdor shaxslarni vazifalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlardir. Ya'ni, davlat xizmatchisi uning ta'siri ostida shaxsiy manfaatlar, buning natijasida u ziddiyatli qarorlar qabul qiladi va davlat manfaatlari to'qnashuviga to'qnash keladi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Mazkur qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi nima ekani, qanday holatda vujudga kelishi, uning oldini olish chora-tadbirlari, qonuniy javobgarlikka tortish jarayoni va boshqa holatlar keltirilgan.

Jumladan, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Mazkur qonunning 3-moddasiga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Sanjarbek G'ULOMOV,
Markaziy Osiyo xalqaro instituti
yuriskonsulti



2025-YIL 1-YANVARDAN OPERATSIYA VA JONLANTIRISH (REANIMATSIYA) XONALARIGA OVOZ VA VIDEO YOZIB OLISH KAMERALARI O'RNATILADI



TA'TIL BERILGAN, AMMO...

Ibn Sino nomidagi To'rtko'l jamoat salomatligi texnikumi ishchisi A.J. tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, unga 2024-yil 4-yanvar kuni ta'tilga chiqish haqida buyruq chiqarilgani, biroq shu kunga qadar ta'til puli to'lab berilmaganini bildirgan.

Murojaat o'rganilganda, haqiqatan ham ish beruvchi tomonidan A.J.ga har yilgi mehnat ta'tilida bo'lgan vaqti uchun to'lanishi kerak bo'lgan mablag' o'z vaqtida to'lab berilmaganini aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 233-moddasida "Har yilgi mehnat ta'tilida bo'lgan vaqti uchun xodimga kodeksning 257-moddasiga asosan hisoblab chiqariladigan o'rtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanadi. Har yilgi mehnat ta'tili vaqti uchun haq to'lash jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda, biroq ta'til boshlanguniga qadar oxirgi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi" deb belgilangan.

O'rganish natijasiga ko'ra, A.J.ga ta'til puli to'lab berilishi ta'minlandi va ish beruvchi R.A.ga nisbatan mehnat va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzgani uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasi birinchi qismi bilan ma'muriy jazo qo'llash masalasini hal qilish uchun tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga taklif kiritildi.

Nasiba RADJAPOVA,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



HISOBCHINING GAPLARI ASSOSSIZ!

– Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayman, moddiy yordam olishimni adliya idorasi tasdiqladi, lekin hisobchimiz buni rad etmoqda. Shu to'g'rimi?

M. OCHILOVA

– Hisobchining gaplari asossiz. Boisi, xodimlarga moddiy yordam maktablarda beriladi. Moddiy yordam olish uchun xodim shu tashkilotda mehnat shartnomasi asosida ishlashi va moddiy yordam olish uchun asos bo'ladigan holatlar sodir bo'lishining o'zi yetarli. Shunga ko'ra, moddiy yordam olish uchun maktab rahbariga ariza yozish kerak. Bunga asos bor. Ya'ni, Vazirlar Mahkamasining 425-sonli qarori bilan Hukumat (823-sonli) qarorining 33-bandiga o'zgartirish kiritilgan. Unga ko'ra, umumta'lim muassasalari xodimlariga kalendar yil davomida ikki lavozim maoshi (o'qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha:

- ✓ xodimning o'zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o'rtog'i, farzandi) vafot etganda;
- ✓ og'ir kasallikka chalinganda;
- ✓ xodim tabiiy ofatdan zarar ko'rganda moddiy yordam ko'rsatiladi.

Qoidaning mazmuniga ko'ra, xodim maktabda mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan davrda yuqoridagi holatlar sodir bo'lsa, direktor jamg'armasida mablag' yetarli bo'lgan taqdirda, xodim 2 lavozim maoshi miqdorida moddiy yordam olishga haqli. Bunda xodimga moddiy yordam berish bo'yicha ishchi guruh qarori asosida direktorning buyrug'i chiqariladi.

– Katta korxonada ishlayman. Ta'tilga chiqqandim, men ga ustama to'lanmadi? Ta'til davrida ustama to'lanmaydimi?

M. NOSIROV



– Ta'til davrida ustama to'lanmasligi to'g'ri, chunki ta'til vaqtida xodimlarga ish haqi va qo'shimcha to'lovlar, shu jumladan, ustama o'rniga ta'til puli to'lanadi. Mehnat kodeksining 233-moddasiga muvofiq har yilgi mehnat ta'tilida bo'lgan vaqti uchun xodimga kodeksning 257-moddasiga ko'ra, hisoblab chiqariladigan o'rtacha ish haqining saqlanishi kafolatlanadi. Mehnat kodeksining 257-moddasi birinchi qismiga binoan o'rtacha ish haqi u hisoblanadigan oydan oldingi o'n ikki oyni tashkil etuvchi hisob-kitob davri yoxud agar xodim o'n ikki oydan kam ishlagan bo'lsa, amalda ishlangan davr uchun xodimga hisoblangan ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Shu qoidaga ko'ra, xodimning o'rtacha oylik ish haqini hisoblashda u 12 oydan ortiq ishlagan bo'lsa, uning ta'tilga chiqishdan oldingi 12 oylik davrda korxonadan olgan barcha to'lovlari ish haqi, moddiy yordam, mukofot puli qo'shilgan holda 12 ga bo'linadi. Mana shu qoidaga ko'ra, ta'tilga chiqishdan oldingi oylarda to'langan barcha to'lovlar, shu jumladan, ustamalar ham o'rtacha ish haqini hisoblashda qo'shiladi. Shuning uchun ta'til davrida alohida ustama to'lanmaydi.

Savollarga Nurota tuman adliya bo'limi boshlig'i Umid SUVONOV javob berdi

“DEKRET” PULI QACHON TO'LAB BERILISHI KERAK?



Amaldagi Mehnat kodeksining 404-moddasiga asosan ayolga tug'uruqqa cha yetmish kalendar kun hamda tug'uruqdan keyin ellik olti kalendar (tug'ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar) kun homiladorlik va tug'ish ta'tili berilib, o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'lanadi.

Homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lashning yangi tartibi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi qarori bilan tasdiqlangan "Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalarni hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga nafaqani tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan belgilangan. Mazkur Nizom bo'yicha xodimga homiladorlik va tug'ish nafaqasi ("dekret" puli) jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi, lekin mehnatga layoqatsizlik varaqasi taqdim etilgan kundan boshlab o'n olti kalendar kundan ko'p bo'lmagligi kerak.

Qonunchilikka ko'ra, homiladorlik va tug'ish nafaqasi xodim ish beruvchiga mehnatga layoqatsizlik varaqasini olib kelgandan boshlab, tashkilotning lokal hujjatlari yoki taraflar o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida boshqa qisqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, o'n olti kalendar kundan oshmagan holda to'lab berilishi lozim.

Dilafro'z TURSUNOVA,
Yunusobod tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

6 SUD ZALIDAN

Zumrad Aliyeva – (ism-shariflar o'zgartirilgan) Navoiy shahridagi 7-umumiy ta'lim maktabida ingliz tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Ayni paytda bola parvarishi ta'tilida. Marziya Sobirova – Navoiy shahridagi 7-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi. Ayni paytda tug'uruq ta'tilida. Nasiba Botirova – Navoiy shahridagi 7-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi. Noila Nurmatova – Navoiy shahridagi 16-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi. Barchasining "dardi" bir xil – qalbaki sertifikat bu ustozlarning boshiga balo bo'ldi.

Bu jinoyat tafsilotlari bilan tanishgan odam bolalarning kelajagi bunday o'qituvchilar qo'lga topshirib qo'yilganiga achinadi. Zumrad Aliyeva Karmanadagi 8-umumta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi Lola Ortiqova bilan tanishib qoladi. U hamkasb ayolning S1 darajadagi "Aptis for teachers" xalqaro sertifikatini olish istagida ekanini bilib, qing'ir ishga qo'l uradi. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalash-tirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 5-bandiga ko'ra, 2021-2022-o'quv yilidan boshlab, ta'lim muassasalarining kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy til o'qituvchilariga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama to'lanadi. Z. Aliyeva C1 darajadagi xalqaro sertifikatini olib berish o'zining xizmat vazifasiga kirmasligini bila turib, uni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida qonunga xilof ravishda L. Ortiqovaga 800 AQSH dollari evaziga tizimda mavjud bo'lmagan qalbaki sertifikatni "sotgani"ni, garchi tan olmagan bo'lsa-da, guvohlarning va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalari bilan uning aybi o'z isbotini topdi.

Ishi yurishib ketgan muallimaning ishtahasi ochilib, yana yangi "o'lja"si-ni izlaganiga nima deysiz? Bu gal u tanishi S. Mo'minova yordamida Nav-

Nafs balosi insonni har ko'yga soladi, bor-budidan ayiradi, el ichida obro'sini to'kib, sharmanda-yu sharmisor qiladi. Hammasidan ham o'qigan-tushungan, yaxshi kasbi, tayinli ish joyiga ega bo'lgan noshukurlarning nafs domiga ilinishini aslo oqlab bo'lmaydi. "Qahramon"larimiz oliy ma'lumotli, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili fanidan yoshlarga saboq berayotgan ustoz-muallimlar ekanini eshitganlar taajjublanishi aniq. Ammo, ming afsuski, sudda bir emas, 4 nafar o'qituvchining qalbaki sertifikat bilan ustama olib yurgani yetmaganidek, boshqalarga ham soxta sertifikat sotgani to'g'risidagi jinoyat ishi ko'rib chiqilib, dalillar bilan o'z tasdig'ini topdi.

QALBAKI SERTIFIKATLI USTOZLAR

bahor tumanidagi 15-umumiy ta'lim maktabining ingliz tili o'qituvchisi Ma'mura Barotovani tuzoqqa ilintiradi. Unga ham 1000 AQSH dollari evaziga xuddi shunday soxta sertifikat tayyorlab beradi.

O'zgalarga qalbaki sertifikat olib bergani kamlik qilganidek, firibgar o'qituvchi Z. Aliyevaning o'z nomiga olingan va maktabga topshirilgan C1 sertifikat ham soxta ekaniga nima deysiz? Prezident qarori chiqqanidan so'ng ko'pchilik o'qituvchilar sertifikat olish uchun o'zlarini turli noqonuniy yo'llarga urgani juda achinarli, albatta. Ammo Z. Aliyevani telegram ijtimoiy tarmog'idagi guruhlar orqali sertifikat olib, aldangan zamondoshlarimizdan biri desak, xato qilamiz, chunki uning katta pul evaziga boshqalarni ham aldab, shu yo'lga boshlaganini oqlay olmaymiz.

Marziya Sobirova esa yosh bo'lsa-da, ustasi farang ustozlardan ekan. U 2022-yilda 7-umumta'lim maktabiga ingliz tili o'qituvchisi sifatida ishga kirgan bo'lishiga qaramasdan, mo'may daromad olishning "ko'zini" biladigan yoshlardan chiqdi. U xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilarga



ustama puli to'lab berilishini bilgani uchun shaxsi noma'lum shaxslar bilan jinoiy til birlashtirib, tizimda mavjud bo'lmagan hujjatni tayyorlab, o'zi ishlayotgan maktab ma'muriyatiga taqdim qiladi. Yosh muallima qalbaki sertifikat bilan 1 million 251 ming 982 so'm miqdorida ustama to'lovlarini olib kelgani sudda o'z isbotini topdi.

O'n olti yildan buyon maktabda yoshlarga ta'lim berib kelayotgan Nasiba Botirovani nima jin urdi dersiz! U haligacha o'zi hayotdan yetarli saboq olmagan uchun sudning qora kursisiga o'tirishga majbur bo'ldi. Nasiba o'z foydasini ko'zlab, ishlayotgan maktabiga qalbaki sertifikat taqdim qilgani uchun 2 million 691 ming 752 so'm miqdorida ustama olgan bo'lsa, endi sudning hukmi bilan jarama to'lashga majbur bo'ldi.

17 yildan buyon o'qituvchilik qilib kelayotgan Noila Nurmatova ham o'zi bila turib qalbaki sertifikatni ishlayotgan maktabiga taqdim qiladi. U ham noqonuniy ustama to'lovlarini olishda vijdoni qiynalmaganlardan.

Navoiy viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida faoliyat

yuritayotgan chet tillarini bilish darajasi bo'yicha xalqaro tan olingan hamda umumta'lim fanlarini bilish to'g'risidagi sertifikatlar bo'yicha tekshirish o'tkazildi. Mavjud 2 ming 679 ta sertifikatning haqqoniyligi tekshirilganda, 221 ta sertifikat ma'lumotlar kiritishda xatolikka yo'l qo'yilgani va tahrirlash uchun qaytarilgani, 2 ming 377 ta sertifikatning haqqoniyligini tekshirish bo'yicha verifikatsiyadan o'tkazish jarayonida Z. Aliyeva, M. Sobirova, N. Botirova, N. Nurmatova, L. Ortiqova va hamda M. Barotovalarga tegishli "Aptis for teachers" xalqaro sertifikatini to'g'risidagi ma'lumot tizimda mavjud emasligi aniqlandi.

"Boshingga ne balo kelsa, birov-danmas, o'zingdan ko'r..." deb bekorga aytilmagan. Darhaqiqat shunday. O'z nafsiga qul bo'lgan, egri yo'l bilan boylik orttirishdan qaytmaydigan, birovning haqqiga, qolaversa, davlatning mulkiga ko'z olaytirgan kimsalarning qonun oldida javob berishi muqarrar.

Sud sudlanuvchilarning va guvohlarning ko'rsatmalarini muhokama qilib, tegishli xulosaga keldi. Sudlanuvchi Z. Aliyevaga Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini bilan bir yil muddatga muayyan huquqdan, ya'ni davlat ta'lim muassasalarida o'qituvchilik vazifasida ishlash huquqidan mahrum qilgan holda 8 million 250 ming so'm jarima jazosi tayinlandi.

O'zlari uchun moddiy manfaat va muayyan huquq beradigan, ammo "Bilim va ko'nikmalarni baholash markazi" MChJning xatiga ko'ra, tizimda mavjud bo'lmagan C1 darajadagi xalqaro sertifikatini soxtalashtirib, ustama pullarini olib yurgani uchun M. Sobirova, N. Botirova va N. Nurmatovalarga esa Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asosan 3 million 630 ming so'm jarima jazosi tayinlandi. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak, deganlari shu bo'lsa kerak-da!

Dilobar PARDAYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy
shahar sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

TALABALARGA IMTIYOZ BORMI?



– Hozirgi kunda oliygoh talabasi-man. Tuman Mudofaa ishlari bo'limi tomonidan majburiy ravishda safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatini o'tashim kerakligi to'g'risida chaqiruv xati oldim. Agar o'z vaqtida harbiy xizmatga bormasam, menga nisbatan jarima qo'llanilar ekan. Talabalarga harbiy xizmatni o'tashga oid imtiyozlar bormi?

R. SOATOV



BE SO'RAGAN EDINGIZ

– O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunining 21-moddasiga ko'ra, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan chaqiruvchilar, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi o'qishda tahsil olayotgan talabalar o'qishni davom ettirishlari uchun ularning chaqirilish muddati o'qishni tamomlagunlariga qadar kechiktiriladi.

Shunday ekan, siz ayni vaqtda ushbu xizmatni o'tashdan ozod etilgan-siz. Siz oliy ta'lim muassasasini tamomlaganingizdan keyin harbiy xizmatni o'tash majburiyatiga ega bo'lasiz.

Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limning kunduzgi va kechki shaklida tahsil olayotgan talabalar o'z roziligi bilan safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olinishi mumkin. Bunda talabalar bir oylik harbiy yig'inlarni o'tashga iyul-avgustda jalb etiladi. Ta'lim muassasalaridan o'qishdan chiqarilgan shaxslar chaqirilish muddatini kechiktirish huquqidan mahrum bo'ladi.

Iskandar RO'ZIBOYEV,
Sergeli tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti

Yuvenal yustitsiya, bir tomondan, voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo'lgan huquqini yuqori darajada ta'minlash imkoniga, ikkinchi tomondan esa, jamoatchilik kuchiga asoslanadi. Shu boisdan ham, mutaxassislar, yuvenal yustitsiyani sud va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi tuzilma, deb e'tirof etadi.

YUVENAL YUSTITSIYA



Jahonning ko'pgina davlatlarida voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan alohida sudlar tashkil etilgan bo'lib, ular samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ma'lumki, inson huquqlari tizimida bola huquqlari alohida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu holat bir jihatdan, bolalar har bir jamiyatning kelajagi, poydevori ekani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, bolalar jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar ichida eng nozik, yordam va himoyaga muhtoj guruh ekani bilan ham tavsiflanadi. Shu boisdan ham, O'zbekiston bola huquqlariga oid qator xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilgan. Bola huquqlariga doir xalqaro huquq qoidalarining eng muhimlari mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilingan.

STRATEGIYANING USTUVOR YO'NALISHI

2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilingan. Farmon bilan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur strategiya 7 ta ustuvor yo'nalishdan iboratdir. Strategiyaning "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish" deb nomlangan ustuvor yo'nalishida Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash asosiy maqsadlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

"Bola, u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmaganligi tufayli maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajada huquqiy himoyaga muhtoj". Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada mustahkamlangan ushbu xalqaro huquqiy qoida 1994-yilda Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarni jinoiy

javobgarlikka tortish va jazoni individuallashtirish va differensiallashtirishning xalqaro huquqiy asosi sifatida yoritilgan.

“

Voyaga yetmaganlar (bolalar) ishlari bo'yicha sudi o'z vakolatlari doirasida tarafdardan biri voyaga yetmagan bo'lgan jinoyat, fuqarolik va ma'muriy ishlarni ko'ruvchi suddir. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlarning asosiy vazifasi bolalarni himoya qilish va ularni rehabilitatsiya qilishdir.

O'tgan tarixiy davr mobaynida yuvenal yustitsiya shakllanish va rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirdi. Hozirgi kunda esa bu institut voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlashning samarali mexanizmi ekanligini isbotlamoqda. Voyaga yetmaganlarning sodir etgan huquqbuzarliklariga nisbatan davlat ta'sir choralarini qo'llashning juda murakkab va mas'ul vazifa ekanligini hisobga olgan holda, bunday ishlarni ko'rishning maxsus sud organlari tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq ekanligini jahon amaliyoti ham tasdiqlab turibdi. Bu masala, ayniqsa, hozirgi sud-huquq islohotlari keng olib borilayotgan va bu islohotlarning bir yo'nalishi sifatida jinoiy jazolarni liberallashtirish yo'li tutilayotgan bir sharoitda yanada dolzarblik kasb etadi.

XORIY TAJRIBASI


Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi qanday? 1988-yilda Italiyada voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan sudlar tizimi qayta tashkil etilib, har bir apellyatsiya sudlari okruglarida voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan mustaqil tribunallar tashkil etilgan. Bu sudlar ikki malakali yurist va ikki ekspertdan iborat tarkibda tashkil etilgan. Ekspertlar bir erkak va bir ayoldan iborat bo'lishadi. Mazkur tribunallar 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning huquqbuzarliklariga doir ishlarni ko'rishadi. Tribunal qarori yuzasidan beriladigan shikoyatlar ikki xuddi shunday ekspertlar ishtirokida, apellyatsiya sudining ikki palatasining biri tomonidan ko'rib chiqiladi.

“

Avstraliyada ham maxsus sudlar qatorida voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan sudlar mavjud. Bunday sudlar o'smirlar tomonidan sodir etilgan kam ahamiyatli huquqbuzarlik ishlarini ko'radi. Bundan tashqari, mazkur sudlar bolalar va o'smirlarga qarshi qaratilgan jinoqatlarni ham ko'radi. Bu sudlarning yana bir muhim vazifasi yo'qolib qolgan ota-onalarni topish, qarovsiz bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarning ustuvorligi O'zbekiston qonunchiligining bosh tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yuvenal yustitsiya institutining joriy etilishi ham mamlakatimizda bola huquqlari kafolatlanganining yana bir yaqqol namunasidir.

Ziyoda TO'RABAYEVA,
TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korruptsiyaga qarshi kurashish kafedrasida
katta o'qituvchisi



– Ish yurituvchi lavozimiga ishga kirmoqchi edim. Lekin homiladorligim uchun meni ishga olishmadi. Ish beruvchi uzoq vaqt ishlamay, homiladorlik va tug'ish ta'tiliga ketishimni aytdi. Keyinchalik yana boshqa xodim izlab, vaqt o'tkazishi mumkinligini menga tushuntirdi. Ish beruvchining shu harakati to'g'rimi?

– Konstitutsiyaning 42-moddasiga muvofiq, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

Jinoyat kodeksining 148-moddasiga ko'ra, ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Bu holatda mehnat huquqi inspektori yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishingiz lozim.



– Qo'shnim yo'nalishli taksi (marshrutka) haydovchisi. Hozir 14 yoshli o'g'lim yozgi ta'tilda bo'lgani uchun uni o'ziga yordamchi qilib olmoqchi. Agar o'g'lim har kuni kun davomida konduktorlik qilsa, oylik ish haqi to'lashini aytdi. Voyaga yetmagan o'g'lim ta'til vaqtida ishlashi mumkinmi?

– 2010-yil 21-yanvarda Adliya vazirligida 2071-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Voyaga yetmaganlarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizom talablariga ko'ra, ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) o'zlarining voyaga yetmagan bolalari mehnatidan foydalanishda bolaning sog'lig'i holati va kasallanishining oldini olishga javobgardir.

Shuningdek, Voyaga yetmaganlar mehnatidan yer osti, suv osti, xavfli balandlikda yoki yopiq muhitda bajarish, xavfli mexanizmlar, asbob va uskunalar bilan bog'liq bo'lgan, xavfli buyumlar yoki jarayonlar, harorat, shovqin yoki to'lqinlanish darajasining yuqori ta'sirida voyaga yetmaganlarning sog'lig'iga zarar yetkazishga olib keladigan zararli sharoitlardagi, og'ir mehnat sharoitlarida bajariladigan (ish vaqtining davomiyligi uzoq bo'lgan, tungi ishlar va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan), o'zining xususiyati bilan bunday toifadagi xodimlarning axloq-odobiga zarar yetkazadigan, belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishi va tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu qonunchilikni buzish, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga, shuningdek, jinoiy javobgarlikka tortilishga ham sabab bo'ladi.

Nurya BERDINIYAZOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

8 KUN MAVZUSI

Reklama faoliyati ommaviy xarakter kasb etib, jamiyatning reklama xizmatlariga bo'ladigan talablarini to'liq qamrab oladigan maxsus ijtimoiy institut – "reklama industriyasi"ga aylandi. Reklama mahsulotlari ishlab chiqaradigan va reklama xarakteridagi xizmatlarni bajaradigan maxsus tashkilotlar paydo bo'ldi.

Reklama qilish uchun barcha maydonlardan, ya'ni, OAV, televideniye, internet, uylarning devorlari, ko'chalardagi reklama taxtalari, asfalt yo'llar, liftlarning devorlari, metro poyezdlari, avtobuslar, taksilar va hatto hayvonlar va odamlarning tanalaridan ham foydalanilmoqda.

YOLG'ONLARGA ISHONIB...

Reklamalarda ko'pincha "tekin", "nol tiyin", "SMS jo'nat va avtomobil ol", "xizmatga obuna bo'ling va super sovg'ani qo'lga kiriting" va boshqa yolg'onlar haddan tashqari ko'p ishlatilmoqda. Aslida ana shu xizmatlarning qo'shimcha xarajatlari, abonentlik to'lovlari yoki undan ham qimmat bo'lgan boshqa xarajatlari bor. Natijada, reklamada hammasi tekin deb va'da qilingan narsaga odamlar pul to'laydi, hatto ortig'i bilan to'lab chuv tushib ham qoladi. Keyingi vaqtlarda "qonuniy" aldovlar yoki iste'molchilarni "yengil" yo'l bilan aldash sxemasi juda ko'p uchramoqda.

Qonunchilik nuqtai nazaridan, ularning barcha ishi qonunga muvofiqdek ko'rinadi. Ammo ularning ishlari go'yoki afsungarlarning afsuniga o'xshaydi: "epchil qo'llar va hech qanday yolg'on yo'q". Haqiqatdan ko'zlarini to'sib qo'yilgan odamlar pullaridan ayrilayotganini sezmay qoladi.

Aslida, reklama faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solingan. Ushbu qonun bilan reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatish sohasidagi munosabatlar belgilab berilgan.



Qonunda "aksireklama", "axloqsiz reklama", "ijtimoiy axborot", "nomaqbul reklama", "noto'g'ri (insofsiz, bila turib yolg'on) reklama", "rag'batlantiruvchi aksiya", "uq'unlashtirilgan reklama", "qashirin reklama", "qiyosiy reklama" kabi tushunchalarga tarif berilgan.

Qonunga muvofiq, reklama bu – har qanday reklama vositalaridan foydalangan holda tarqatiladigan, mazmuni O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan reklamadan foydalanuvchilarga qaratilgan va reklama obyektiga e'tiborni jalb qilish, unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish yoki qo'llab-quvvatlash, shuningdek uni bozorda bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida ilgari surish uchun mo'ljallangan maxsus axborot hisoblanadi.

TAQIQLANGAN REKLAMALAR

- faqat shifokorning retsepti bo'yicha tarqatiladigan dori vositalarini;
- tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini;
- O'zbekiston tibbiyotida qo'llanish uchun ruxsat etilmagan dori vositalarini;
- Sog'liqni saqlash vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan dori vositalarini reklama qilish taqiqlanadi.

Shuningdek, energetik ichimliklar namunalari

Bugun dunyo nimadir sotilayotgan, turli-tuman tovarlar va xizmatlar taklif qilinayotgan "global bozor"ga aylanib bormoqda. Ishlab chiqaruvchilarning asosiy vazifasi va bosh og'rig'i esa, qanday qilib bo'lmasin, mijozlarning e'tiborini jalb qilish, mahsulotlarining noyob ashyolar ekaniga ishonitirib, molini sotishdir. Ana shu funksiyani reklama o'z zimmasiga oladi.



REKLAMA sabab

ALDOV

QURBONI BO'LMANG!



voyaga yetmaganlar o'rtasida reklama qilish maqsadida bepul tarqatish, voyaga yetmaganlarga energetik ichimliklarni reklama qilish, asosan voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan tadbirlarga homiylik qilish, agar bunda energetik ichimliklarning nomidan, tovar belgisidan (xizmat ko'rsatish belgisidan) yoki tasviridan foydalaniladigan bo'lsa, voyaga yetmaganlar orasida energetik ichimliklarning nomidan, tovar belgisidan (xizmat ko'rsatish belgisidan) yoki tasviridan foydalanilgan tovarlarni (futbol kalar, bosh kiyimlar, o'yinlarni va boshqalarni) tarqatish, shu jumladan sotish, asosan bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan bosma nashrlarda, shuningdek tibbiyot, sport va ta'lim muassasalarida hamda tashkilotlarida energetik ichimliklarni reklama qilish taqiqlanadi.

QAT'IY TALABLARGA MOS BO'LISHI SHART!

- Ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarni reklama qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarga oid axborotlar go'dakni 6 oygacha oziqlantirishda ona suti bilan oziqlantirishning foydasi va afzalligi to'g'risidagi ko'rsatmani o'z ichiga olgan bo'lishi kerak;
- bola hayotining birinchi yilida uning ratsioniga kiritilgan qo'shimcha ovqat mahsulotlari reklamasida yoshga doir cheklovlar hamda mutaxassislarining maslahati zarurligi haqidagi ogohlantirish bo'lishi zarur.

Ota-onalar va tarbiyachilarni obro'sizlantirish mumkin emas!

Voyaga yetmaganlarni ularning ishonchini va tajribasi yetishmasligini suiste'mol qilishlardan himoya etish maqsadida reklamada quyidagilar taqiqlanadi:

- voyaga yetmaganlarning iste'mol qilishi taqiqlangan tovarlarni iste'mol qilayotgan yoki ulardan foydalanayotgan voyaga yetmaganlarning tasvirlaridan foydalanish;
- xavfli vaziyatlarda, shu bilan birga ularning hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga undovchi vaziyatlarda voyaga yetmaganlarni namoyish etishdan foydalanish;
- voyaga yetmaganlarni tovarlarni olishga da'vat qilish yoki reklama qilayotgan tovarlarni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga undash;
- haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalanish;
- ota-onalar va tarbiyachilarni obro'sizlantirish, voyaga yetmaganlarning ularga bo'lgan ishonchiga putur yetkazish;
- voyaga yetmaganlarni olishi yoki iste'mol qilishi taqiqlangan tovarlarni voyaga yetmaganlar uchun mo'ljallangan telekanallarda, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarda reklama qilish.

ZARAR QOPLAB BERILADI

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilgan iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Shuningdek, noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Husanboy INOMOV,
Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

INSON
va qonunMUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olinganBosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sherzod Abdullayev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Gulbahor Ortixojayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraji – 3755
Buyurtma – 2635Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5